



**Shahlo HOJIEVA,**

O'ZMU dotsenti

E-mail: sh.hojiyeva@mail.ru

TDO 'TAU professori N.Jabborov taqrizi asosida

## THE INFLUENCE OF WORLD LITERATURE ON THE DEVELOPMENT OF THE AESTHETIC THINKING OF CHOLPON AND TURKISH CONTEMPORARY

### Annotation

The article examines intellectual renaissance in Turkestan in the second half of the 19th - beginning of the 20th century, the impact of socio-political changes on the literary process, and the intense activity of the enlightened moderns to direct literature, press and education to the idea of the development of the Motherland and the nation. The role of Cholpon's work in the renewal of aesthetic thinking is highlighted. The introduction and development of such genres as novels, sonnets, and dramas into our national literature was discussed.

**Key words:** Literary type, genre, literary process, novel, sonnet, tragedy, figurative expression.

## ВЛИЯНИЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧУЛПАНА И ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ

### Аннотация

В статье рассматривается интеллектуальное возрождение в Туркестане второй половины XIX - начала XX века, влияние общественно-политических изменений на литературный процесс, интенсивная деятельность просвещенных джадидов по направлению литературы, печати и образования к идеи развития Родины и нации. Подчеркнута роль творчества Чулпана в обновлении эстетического мышления. Обсуждается внедрение и развитие в нашей национальной литературе таких жанров, как романы, сонеты и драмы.

**Ключевые слова:** Литературный тип, жанр, литературный процесс, роман, сонет, трагедия, образное выражение.

## CHO'LPOV VA TURKISTON JADIDLARI ESTETIK TAFAKKURI TAKOMILIGA JAHON ADABIYOTINING TA'SIRI

### Annotatsiya

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Turkistondagi fikriy uyg'onish, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning adabiy jarayonga ta'siri, ma'rifatparvar jadidlarning adabiyot, matbuot va maorifni Vatan va millat taraqqiyasi g'oyasiga yo'naltirish yo'lida qizg'in faoliyatini tadqiq qilingan. Cho'lpon ijodining estetik tafakkur yangilanishidagi o'rni yoritilgan. Milliy adabiyotimizga roman, sonet va drama kabi janrlarning kirib kelishi va takomili jarayoni xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiy tur, janr, adabiy jarayon, roman, sonet, tragediya, tasviriy ifoda.

**Kirish.** XIX va XX asrlar o'rtalaridagi 50-60 yillik davr ko'hna va boy o'zbek adabiyoti tarixida juda muhim qimmatiga ega. Chunki, avvalo, adabiyot xalqimiz hayotida sodir bo'lgan eng ulug' musibat – o'z mustaqilligini yo'qotishi hodisalarini jimgina loqayd kuzatishdan, uning fojali natijalarini chuqur his etish va ozodlik, hurlik uchun kurashgacha chaqirishgacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Ikkinchidan, adabiyot bo'lib o'tgan davr voqeahodisalari ta'sirida g'arblashdi; mazmun-mohiyati kengaydi; davriy matbuot va teatrning dunyoga kelishi bilan yangi adabiy tur va janrlar yaratildi. An'anaviy poetika va u bilan bog'liq timsollarga yangi mazmun kirdi. Doimiy hukmron aruz vazni yoniga esdan chiqarilgan qadimgi barmoq vazni chiqdi. Sarbastda lirik asarlar yaratildi va mansuralar yozildi. Umumiy qilib aytganda, zamonaviy realistik adabiyot paydo bo'ldi. Bu davr adabiyoti tabiatini ham avvalgilardan tubdan farqlandi.

Milliy uyg'onish davri o'lkamizda jadidchilik davri ko'rinishida aks etdi va u 20-yillarda o'rtalarigacha hukm surdi. 1926 yildan bolsheviklar unga qarshi keng miqyosda kurash e'lon qildi. 1929 yildan e'tiboran jadidchilik harakati tugatildi. Zero, bu harakatning paydo bo'lishi bevosita istilo va uning natijalarini bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning yuzaga kelish davrini 1865-1905 yillar bilan belgilash maqsadga muvofiqdir. Jadidchilik harakatining rahnomasi I.Gasprali turkiy xalqlarning jipsligini ilgari surar ekan, "Tilda, fikrda, ishda birlik" kun tartibiga qo'ydi. Jadidlar maorifni, matbuotni, adabiyotni yangilashni ko'zda tutdilar, bu borada keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdilar, ma'lum ma'noda ko'zlagan maqsadlariga erishdilar"<sup>[1]</sup>. Bu adabiyot yangilanish davri adabiyotidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqola uchun Abdulhamid Cho'lpon "Tanlangan asarlar"i birinchi va to'rtinchi jildlaridagi she'rlari, marsiyalari va maqolalari, Ismoilbek Gaspralining "Hayot va mamot masalasi", Ahmad Zaki Validiy

"Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik kurashlari tarixi" kitoblari hamda Naim Karimovning "Adabiyot va tarixiy jarayon", Hamidulla Boltaboevning "Fitrat va jadidchilik" kitoblari asosiy material bo'lib xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiasi.** Muammoni tahlil etishda tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Jadidchilik – jamiyat hayotining barcha jabhalarini birday qamrab olgan, yangi adabiyotning shakllanishi va rivojini ta'min etgari siyosiy-ijtimoiy, adabiy-ma'rifiy harakat ekani ayon. Bu harakatning yana bir ahamiyatli jihatni, millat ziyyolalarini Vatan va millat manfaatlari yo'lida birlashtirganidir. Bunday taraqqiyot hodisasi jadidchilik harakati namoyandalari ijodi orqali milliy adabiyotimizga yangi nafas, yangi janrlar va yangicha qarashlar bilan kirib keldi. Bunda jadidchilik namoyandalardan Cho'lpon, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat va boshqalarning hissasi katta. Jumladan, o'zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romanini orqali milliy adabiyotimizda mukammal romanchiligiga asos soldi. Buni muallifning o'zi roman muqaddamisida shunday izohlaydi: "Modomiki, biz yangi davrning oyoq qo'yidik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishga, xalqimizni shu zamonning "Tohir va Zuhra"lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod va Shirin" va "Bahromgo'r"lari bilan tanishtirishka o'zimizda majburiyat his etamiz.

Yozmoq'a niyatlanganim ushbu "O'tkan kunlar" yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi, bir havasdir"<sup>[2]</sup>.

Professor Sobir Mirvaliev qayd etganidek, "Abdulla Qodiriy arab yozuvchisi Jo'riji Zaydon (1861 - 1914) dan o'rgangan va uni o'ziga ustoz deb bilgan. Uning 22 ta tarixiy

xronikal tipdagи romanlari, ayniqsa, "Armanisa", "Karbalo yong‘usi", "O'n yettinchi ramazon", "Farg'onalik kelin", "Al-Amin va Al-Mo'min" kabi asarlarini bilan tanish bo'lgan. Bu hol har ikki yozuvchi asarlarini qiyosy o'rganishda ochiq ko'zga tashlanadi. Xususan, roman qahramonlarini tanlash, ular taqdirini hal etish va fabula yaratishda A. Qodiriy J. Zaydonga juda yaqin turadi. "O'n yettinchi ramazon" romanidagi Bilol ham "O'tkan kunlar"dagi Hasanali singari xo'jasiga sodiq qul sifatida xizmat qiladi. A. Qodiriy iste'dodi, mahorati va tasvirlash uslubi jihatidan ustozidan ancha yuqoriga ko'tarildi. Agar J. Zaydon tarixni tafsif etish yo'lidan borsa, A. Qodiriy uni tasvirlash, ko'rsatish yo'lidan bordi. U Jo'rji Zaydon kabi tarixchi-xronikachi emas, yozuvchisan'atkor sifatida maydonga chiqdi. Bu yozuvchining novatorligi edi"[3].

Qodiriy birgina Zaydon ijodi bilan emas, jahon adabiyotining, xususan, rus, fransuz, ingliz adabiyotining yetuk vakillari asarlarini bilan yaxshigina tanish bo'lgan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Rustamxon" kabi xalq eposlarini, mumtoz adabiyotimizni juda yaxshi o'rgangan. Bu haqida akademik Baxtiyor Nazarov: "Qodiriyning buyukligi shundaki, u romanchilikka ilk bor qo'l urgan bo'lsa-da, taqlidga berilmagan, salaflar ta'siriga tushib qolmagan, o'xhashi yo'q romanlar yarata olgan. Bu jihatdan, Muxtor Avezov "Abdulla Qodiriy romanlari 1920-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelgandek paydo bo'ldi..." deb yozganida haq edi. Ammo ikkinchi jihatdan, Abdulla Qodiriy asarları tep-tekis cho'lda paydo bo'ldi, deyish munozarali. Negaki, unga qadar adabiyotimizning Navoiy, Bobur kabi baland tog'lari, XX asr boshlarida esa Cho'pon, Fitrat kabi yondosh tog'chaları bor edi. O'zidagi imkoniyat va iste'dodni yuzaga chiqara olgan odam buyukdir. Qodiriy ham xudo yuqtirgan iste'dodini yuzaga chiqardi, o'zini topa oldi"[4] - deydi.

"O'tkan kunlar"dek mukammal milliy roman, albatta, bir tomonlama taraqqiyot natijasi emas. Bunday originallik mustahkam iroda, tunganmas aql, kuchli tafakkur, chuqur bilim talab etadi. A.Qodiriy arab, Yevropa ijodkorlari asarlarini puxta o'rganish bilan birgalikda yuqorida ko'rsatilgan barcha xislatlarning sohibi edi.

Roman janrinining shakllanishida Cho'ponning "Kecha va kunduz" roman dialogiyasi ham yetakchi o'rinni egallaydi. Zero, Cho'pon "Shekspiring" "Hamlet", Karlo Gotsining "Malikay Turandot", Pushkining 25 she'ri va "Boris Godunov" va "Dubrovskiy", Gogolning "Tergovchi", Gorkiyning "Ona" romanini, "Egor Bulichov", Andreevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi" ni hamda Lohutiyning "Evropa safari", Thokurning bir qancha she'rlari va "Suba" kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, zamonaviy o'zbek tarjima maktabiga asos soldi. Uning mana shu ochgan maktabi o'zbek xalqining yanada serqirra adabiyotga ega bo'lishiga zamin yaratdi. Bu maktabning dovrug'i tezda hamma yoqqa tarqaldi. Qaysidir ma'noda shu maktabning yaralishiga jahon adabiyoti namoyondalarining ta'siri bo'ldi"[5].

Cho'pon o'z ijodiy faoliyatida ham mumtoz adabiyotimiz davomchisi sifatida an'anaga sodiq qolganligini, ham jahon adabiyotiga xos poetik vositalarni o'zbek adabiyotida qo'llaganligini guvohi bo'lamiz. Cho'ponning "Kecha va kunduz" romanı esa o'zbek adabiyotida birinchi roman dilogiya sifatida e'lon qilindi. Roman yaratilishida yozuvchining maqsadi milliy ruhmi, hayotni badiiy talqin etishni, davr muhitini qahramonlar ruhiyati orqali ko'rsatishdan iborat edi. Cho'ponshunos olim Dilmurod Quronov "Kecha va kunduz" romanı ustida yaratgan tadqiqotida quyidagi fikrlarni keltirgan edi: "Kecha va kunduz" o'zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan"[6].

O'zbek adabiyotiga sonet XX asrning 30-yillarida kirdi. Sonet (ital. sonetto) — 14 misradan iborat turg'un she'riy shakl. Sonet qat'iy qonun - qoidalar asosida yaratiladi. U 4 banddan iborat bo'lib, 1 va 2 bandlar 4 misradan (katren), 3 va 4 bandlar 3 misradan (terset) tashkil topadi. Katrenlar, asosan, a-b-a-b yoki a-b-b-a shaklida, tersetlar esa v-v-g – d-g-d tarzida qofiyalanadi. Eng muhim — qofiyalar to'la va jarangdor bo'lishi lozim. Sonetning dastlabki bandida fikr rivojlanib borishi, ikkinchi bandda esa bu fikr muayyan xulosa bilan yakunlanishi kerak. Sonetning mustaqil she'r turi sifatida shakllanishida F. Petrarkanining xizmati beqiyos. Dante, P. Ronsar, V. Shekspir, I.

Gyote kabi shoirlar sonetning ning mumtoz namunalarini yaratganlar. Rossiyada ilk bor XVIII asrda V. Trediakovskiy, A. Sumarokovlar, keyinchalik A. Pushkin, M. Lermontov, A. Fet kabi shoirlar, XX asrda A. Blok, B. Bryusov, A. Axmatovalar sonetlar yozgan. O'zbek adabiyotida ilk bor Usmon Nosir, Cho'pon, keyinchalik Barot Boyqobilov, Rauf Parfi va boshqalar sonet yozganlar. Ushbu janr bizga Yevropadan rus adabiyoti bilan birgalikda kirib keldi. Usmon Nosir rus adabiyoti bilan, jumladan, Pushkin va Lermontov ijodi bilan jiddiy shug'ullangan, ularidan tarjimalar qilgan. Shu jarayonda Pushkinning sonetlari bilan ham tanishgan, o'rgangan. Muhammed shundaki, Pushkin bor-yo'g'i uchta sonet yozgan. Albatta, undan avval, uning davrida ham bu she'riy turga murojaat qilgan taniqli shoirlar bo'lgan. Shunga qaramay, rus sonetchilik tarixi haqida gap ketganda adabiyotshunoslar Pushkinni birinchi ko'rsatishadi. Usmon Nosirning "She'rim! Yana o'zing yaxshisan...", "Dengizga" nomli she'rлari sonetning haqiqiy namunalaridir. "She'rim! Yana o'zing yaxshisan..."[7] soneti ijodkor va uning ijodi o'rtasidagi jo'shqin hissiyotlar izhoriidir.

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,  
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.  
Bir men emas, hayot shaxsisan,  
Jonim kabi yashaysan manda.

Shoirning "Dengizga" sonetida ijodkor go'yoki achchiq taqdirini oldindan sezgandek. Oq dengiz bilan xayrashadi. Xayrashish oldidan uning to'lqinlarini sevishini, oyni cho'miltirgan tinch tunlari uning tushlariga kirishini, suzayotgan oq yelkanlar bir umr yodida qolishi o'rni o'xshatishlar orqali ta'riflanadi.

O'ynagil so'ng marta, chayqal, erkalan!  
Armonim qolmasin ketar oldimda.  
Bag'ringda baliqday yuzgan oq yelkan  
Bir umr sayr etgay mening yodimda...  
Yaxshi qol, erkin sv! Yaxshi qol, dengiz!  
To'lqinlar, qo'ynimga qizday kirdingiz...

Milliy o'zbek adabiyotida Cho'ponning sonetlari ham o'z o'rning ega. Uning "Men va boshqalar", "Chechak", "Javolash" nomli sonetlari lirik qahramonning chuqur hiss tuygularini aniq ifodalaydi. "Men va boshqalar"[8] she'ri o'zbek qizi nomidan aytilib, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek qizlarining ayancli turmush tarzidan so'zlaydi. She'nda erksiz sabab qalbi og'regan qizning yig'lashi, ingrashi, qanoti bo'lsa-da ucholmasligi, ovozi bo'lsa-da so'zolmasligi, hayoti bir qulning hayoti kabi ekanligi, unga hayvondek muomalada bo'lishlari keskin tarzda ifodalanadi.

Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman,  
O'ynagan boshqalar, inglagan menman.  
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,  
Qullik qo'shig'ini tinglagan menman...

"Javolash"[9] sonetida shoир bir o'limning izi haqida fikr bildiradi. Javolashning o'limi misolida har bir inson o'lishi, o'lganidan so'ng yo'q bo'lib, izlari yer betidan yuvilishi, faqat ruhi ona bag'rida saqlanishi, o'limga chora yo'qligi tasvirlandi. Bu she'r kitobxonni o'z taqdiri bo'yicha chuqur mushohadaga chorlaydi.

Hay, qushlardek uchib yurgan yengil jon,  
Gavdang endi tuproqlarga qo'yildi,  
Izlarin ham yer betidan yuvildi.  
Faqat ruhi ketmas ona bag'ridan!

Milliy adabiyotimizning portik yangilanishida drama ham muhim ahamiyat kasb etdi. Dramaning taraqqiyot bosqichi mobaynida barcha xalqlar qo'shiq aytib, raqs tushib, bajardigan turlari rasm-rusmlar bo'lgan. Yunon dramaturgiyasining barcha turlari-tragediya, komediya, satiralar dramasi Dionisga bag'ishlangan marosimlar asosida maydonga kelgan. Turkistonda, rus, tatar, ozarbayjon teatrlarining kirib kelishi o'zbek milliy teatr san'atining antik davrlarda paydo bo'lgan qadimgi yunon teatri ko'rinishidagi teatr madaniyatini oradan ikki ming yildan ko'proq vaqt o'tib ham mazmun, ham shakl jihatidan katta o'zgarishlarga uchrab, yangidan shakllanishi uchun zamin yaratdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "Badiiy asar yaratish, hayot haqiqatini ifoda etishda shaxsiy dunyoqarash katta ahamiyatiga ega. Hayotni o'zicha talqin qilish har bir ijodkor shaxsiga xos beligidir. U o'z atrofida sodir bo'layotgan voqe'a-hodisalarini, hayotning ichki

muammolarini, odamlar ruhiyatini aql bilan idrok etib, tasvirlaydi. Muallifning qarashlari qanchalik teran bo'lsa, voqealar o'quvchi ko'z o'ngida shunchalik hayotiy va jonli tarzda namoyon bo'ladi. Hayotni muntazam kuzatish, ijod yo'lidagi tinmay izlanishlar, oldinga olg'a yurish-bularning bari ijodkor shaxsning mehnati, dunyoqarashi, tahlili va aqliy faoliyati mahsulidir”[10]. Jadiqlar ana shunday hayot haqiqatini, “hayotni o'zicha talqin qilish” konsepsiyasini, “hayotning ichki muammolarini”, “inson ruhiyatini” mohirlilik ila aks ettirish, “ijod qilish yo'lida tinmay izlanishlar” natijasini ulkan meros qoldirganlar, adabiyotimiz uchun millat uchun zarur nazariyalar yaratganlarini etirof etish muhimdir.

O'zbek adabiyotida dramaturgiya janrining paydo bo'lishi jadidchilik harakati bilan bog'liq. Ma'lumki, o'zbek adabiyoti ko'p asrlik boy tarixga ega bo'lsada, mumtoz adabiyotimizda hozirgi ma'nodagi dramaturgiya yo'q edi. 20-yillarda dramaturgiyasi xazinasiga Behbudiy, A.Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi ijodkorlar salmoqli hissa qo'shgan.

Behbudiy bilan Gasprinskiydag'i bu kabi fikri uyg'unliklar adabiy tanqid hamda teatr masalalarida yaqqol ko'rindi. Gasprinskiy teatrning mohiyatini tushuntirar ekan, “...teatr hunari buyuk hunardir. Teatr xona – iibrat maydoni, balog'at va fasohat maktabi”[11] ekanligini yozadi. Behbudiy o'z navbatida “... teatr va'z va tanbeh qiladigan hamda zararlik odat, urfnинг yomon va zararini aynan ko'rsatadi. Hech kimni ayamaydi”[12] kabi fikrlar bilan uni tushuntiradi. Behbudiyga ko'ra, teatr taraqqiyotning birinchi sabablaridan biri[13]. O'z o'rnida ”Padarkush” dramasi ham ma'rifatsiz, taraqqiyotsiz

millatning hayotini o'zlariga oyna qilib ko'rsatish va farzandlarimizni im-ma'rifat egasi etib tarbiyalash maqsadida yaratilgan ko'p qirrali asardir. Bu fikrimizni Begali Qosimovning fikrlari ham yanada mustahkamlaydi: “Ma'rifat uchun birligina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealar bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvoldidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmuoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak edi, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zaratut Behbudiyi teatr va matbuot sari boshladi. ”Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi”[14].

**Xulosa va takliflar.** Yaxlit baholaganda, Turkiston jadidchilik harakati namoyandalari adabiyot, matbuot va maorifni Vatan va millat taraqqiysi g'oyasiga xizmat qildirdi. Yangi o'zbek adabiyotini yuzaga keltirdi. Bu yangi adabiyot zamонавирина va dramaturgiya shakllanishida, millat estetik tafakkuri yangilanishida alohida o'rinni tutdi. Milliy adabiyotni yangilash jarayonida jadiqlar uch estetik omil – xalq og'zaki ijodi an'analari, mumtoz adabiyot yutuqlari hamda jahon badiiy tafakkuri tajribalaridan foydalandi. Yangi o'zbek she'riyati shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho'lpion yetakchilik qildi. Shoир she'riy vazn va shaklni, poetik mazmun va obrazni yangilashga beqiyos hissa qo'shdi. Milliy she'riyatga sonet va mansura janrlarini olib kirdi. Estetik tafakkurni milliy uyg'onish g'oyasiga xizmat qildirdi.

Jadid adabiyotidagi yangilanish tendensiyalari, bunda jahon adabiyoti tajribalarining o'rni kengroq miqyosda kompleks o'rjanilishi galadagi vazifalardandir.

#### ADABIYOTLAR

1. G'oyipov D. O'zbek va ozarbayjon jadidchiligining mushtarak jihatlari xususida ba'zi xulosalar. /”O'zbek va ozarbayjon filologiyasining dolzarb masalalari” mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 182.
2. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. — Т.: Ўззадабийншар, 1958, 5-бет.
3. Мирвалиев С. Роман ва замон. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 11.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxonah/multimedia/baxtiyor-nazarov-qodiriyining-qudrati.2012-yil>
5. Мамажонов С. Бизнинг Чўлпон. - Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 16.
6. Куронов Д. Рухий дунё таҳлили. – Тошкент: Хазина, 1995. – Б.3
7. Usmon Nosir. Ertani sevib kut. To'plam – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.7.
8. Cho'lpion. Ko'klam ruhi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 27.
9. Cho'lpion. Ko'klam ruhi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 118.
10. Умарова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида ижодкор шахс ва қаҳрамон. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2021.– Б.15
11. Ismoil Gaspirinskiy Mashaolloh. “Targimon” gazetası, 1984. № 29.
12. Behbudiy. Teatar nadir. “Oyina” jurnali, 1914. №29-son, – B. 550-553.
13. Behbudiy. Teatar nadir. “Oyina” jurnali, 1914. №29-son, – B. 550-553.
14. Косимов Б, Юсупов Ш, Долимов У, Ризаев Ш, Ахмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004. – B. 251.